

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Qilichova Marhabo Xudoyqulovna

JDPI "Maktabgacha ta'lim" fakulteti,

"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari yoritilgan. Bunda didaktik o'yinlardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: Maktabgacha ta'lim muassasasi, tarbiyalanuvchi, ijodiy fikrlash, didaktik o'yinlar.

СПОСОБЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Киличова Мархабо Худайкуловна

Факультет «Дошкольного образования»,

Преподаватель кафедры «Методика дошкольного воспитания»

Резюме

Эта статья описывает способы развития креативное мышление навыки у учащихся дошкольных учреждений образование. Рекомендации для эффективных использование дидактических игр.

Ключевые слова: Учреждения дошкольная образования, дети, креативное мышление, дидактических игр.

METHODS OF FORMATION OF CREATIVE THINKING ABILITY IN STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Kilichova Marhabo Khudaykulovna,

Teachers of Jizzakh State Pedagogical Institute

Faculty of Preschool Education,

Lecturer of the Department of "Methodology of Preschool Education"

Abstract

This article describes the ways to develop creative thinking skills in childrens of preschool education. Recommendations for the effective use of didactic games are given.

Keywords: Preschool education, children, creative thinking, didactic games.

Kirish. Bugungi jadal texnologik rivojlanish davri sog'lom, zamonaviy bilimga ega, muammoli vaziyatlarga moslashuvchan hamda bu vaziyatdan oqilona fikr va qarashlari bilan chiqib keta oladigan yangi avlodni tarbiyalash vazifalarini ilgari surilmoqda. Mana shu davr inson kapitalini rivojlantirishda yuksak maqsadli vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutmoqda. Chunki inson kapitali uchun yaratilgan shart-sharoitlar istiqboldagi orzularimizni ro'yobga chiqaruvchi yosh avlodni voyaga yetkazadi. Bu 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida ham ilgari surilgan bo'lib, jumladan ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish[2]-mamlakatimizni jadal rivojlantirish omili sifatida ko'rsatib berilgan.

Inson kapitali ham noyob boylik singari baholanadi. U odamning mehnatga yaroqlilik davrida ko'rsata oladigan xizmatlari, layoqat, qobiliyat va fazilatlarining bahosiga teng bo'ladi. Demak, inson bolalik, yoshlikda o'rgangan bilim, ko'nikmalarini ishlatib, o'ziga va mamlakatiga ko'rsatadigan xizmatlari turkumining

bahosiga teng. AQSHning qanday qilib boy mamlakatga aylanganini o'rgangan olim J.Kendrik "...bunda asosiy omil inson kapitaliga qaratilgan e'tibor ekan" [5, 22-bet.]ligini ta'kidlaydi.

Shu nuqtai-nazardan davlatimiz ham uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni takomillashtirib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish borasida bir qancha me'yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. Bu asoslar bolaning barcha huquqlarini kafolatlaydi. Jumladan, har bir bola maktabgacha ta'lim va tarbiya olish huquqiga ega. Davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga o'qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlaydi. Bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini tashkil etish orqali ta'minlaydi. [1]

G.Shopengauer "Har bir bola qisman dahol, har bir dahol esa qisman boladir" [5,27-b.] -deb, bejizga aytmagan. Uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda ana shunday daholar tarbiyalanadi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirdagi nutqida: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman" [3],- degan edi.

Darhaqiqat, uzluksiz ta'limning bu bosqichi ijodkor, ijtimoiy faol va ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan shaxsni shakllantiruvchi birinchi pog'ona hisoblanadi. Shuning uchun biz bu davrda bolalarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish masalalariga katta e'tibor qaratishimiz darkor.

Asosiy qism: Mutaxassislarining ilmiy xulosalariga ko'ra esa inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Demak, biz bolalarning sog'lom va bilimli, etuk kadr bo'lib voyaga etishida maktabgacha ta'lim yoshidan ularni ijodiy fikrlashga yo'naltirishimiz darkor ekan.

Buning uchun bolalar bilan ko'proq o'yinli mashg'ulotlarni tashkil qilish kerak. O'yin-buyumli-predmetli va ijtimoiy voqeylikda harakat qilish va uni anglashga yo'naltirilgan jarayondir. Bu faoliyat bola uchun yorqin va o'ziga jalb qiluvchi jarayondir. Chunki har bir bola o'yin orqali o'z xatti-harakatlarini erkin va hissiy ehtiyojlar asosida boshqaradi. Eng asosiysi, bu jarayonda bolalar o'z ixtiyori bilan faol ishtirok etishadi. O'yin jarayonida bolaning muayyan narsa yoki buyumni bilishiga shart-sharoit yaratiladi. Shu bilan birga uning irodasi, ehtiyoji va qiziqishlari, jarayonga nisbatan ta'sirchanligi shakllanadi. Tarbiyachi bunda har bolaning qiziqishi va ehtiyojlarini o'rganib, tahlil qilib borishi va shu yo'nalishda ularni ijodiy fikrlashga hamda kasbga yo'naltirish usullarini ham ishlab chiqsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunda tarbiyachi o'yinli mashg'ulotlarni tashkil etishda ko'proq bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga asoslanishi talab etiladi. Ijodiy o'yinlar bu bolalarning mustaqil, ijodiy, o'zlari o'ylab topgan o'yinlar bo'lishi kerak. Shunda bolalarda ijodiy fikrlash doirasi kengayib boyib boradi. Bunda tarbiyachi ularni boshqarib, yo'naltirib borishi talab etiladi.

Ijodiy o'yinlar asosan bolalarning taassurotlari, borliq haqidagi tushunchalari va unga bo'lgan munosabatlarini aks ettiradi. Shu nuqtai-nazardan ijodiy o'yinlarni biror narsa buyumni yaratish yoki yasash, rolli o'yinlar hamda tabiat materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarga ajratishimiz mumkin. Ijodiy o'yinlarning o'ziga xosligi shundaki unda bolalar faqat yasash yoki biror narsani yaratish bilan mashg'ul bo'lmay balki muayyan rollarni ijro etishadi yoki xayoliy vaziyatlarda o'z o'rnini topa oladi.

Ijodiy o‘yinlarda rollarning taqsimlanishi yoki xayoliy vaziyatlarning berilishi bola tafakkurini o‘stirib, ijodiy fikrlash qobiliyatini ro‘yobga chiqaradi. Faqatgina biz tarbiyachilar bu o‘yinlarni bolarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishimiz darkor. Ijodiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu jarayonda ular har tomonlama rivojlanadi, bilish jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi.

“Bolalik-bu ko‘p savollar, imkoniyatlar va oqibatlar davri”-deydi,[5,28-b.] A.Alder. Shuning uchun biz bolalarning hech bir savolini javobsiz qoldirmasligimiz, ularning har bir qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashimiz darkor. Shu bilan birga ular qanday o‘yinlarga qiziqishini va uning oqibatlarini ham tahlil etishimiz darkor.

Yapon pedagoglari O‘zbekistondan boylik topishdi. Ular yosh yapon avlodini saqlab qolish vositasini qidirib-qidirib... O‘zbekistondan topishdi. Bizning ayrim odamlarimiz “zamonaviy emas”, deb o‘ynamay qo‘ygan harakatli o‘yinlarni to‘plab, olib ketib, o‘zlarining superzamonaviy bolalariga o‘rgatishayotgan ekan. Sababi-zamonaviy bolalar o‘yinlari haddan ortiq texnokratlashib ketgan. Ularda insoniy ruh, joziba, zavq va tuyg‘ular kam. [5, 110-b.] Demak, biz zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan didaktik o‘yinlar bilan birga qatorda ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan milliy o‘yinlardan ham unumli foydalanishimiz kerak. Chunki bu o‘yinlar o‘ziga xos shunday xususiyatlarga egaki, u orqali bolalarda intimozlilik, uyushqoqlik, irodalilik kabi ijobiy fazilatlar muayyan harakatlar orqali shakllanadi. Albatta bunda bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Natijalar va muhokamalar. Bolalarni o‘yinlar orqali ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda ularning o‘ynayotgan o‘yinchoqlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada birinchi prezidentimiz jonkuyarlik bilan shunday degan edi:-“ ... har qaysi go‘dak ilk bor olamni o‘z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladan, o‘yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo‘lsak, ularning inson tarbiyasidagi o‘rni beqiyos ekani ayon bo‘ladi. O‘yinchoqlar obrazi bolaning murg‘ak tasavvuriga bamisoli toshga o‘yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go‘dakning ulg‘ayib, kasb tanlashi, kelajakda

qanday yo‘ldan borishi, o‘zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma’naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o‘yinchoqlar bilan oshno bo‘lib o‘sgani bilan belgilanadi.” [4, 43-b.] Bu fikr bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan o‘yinchoqlarni ham tanlashga e’tiborni qaratishimiz lozimligini yana bir bor isbotlaydi.

Xulosa: Demak, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda o‘yinli mashg‘ulotlarni tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘yin bolalarning kelajakdagi o‘quv va mehnat faoliyati, kishilarga, atrof tabiiy muhitga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydigan eng asosiy texnologiya hisoblanadi. O‘yin faoliyati asosida bolaning bilish faoliyati rivojlanadi, u ijodiy, mustaqil fikrlashga o‘rganadi, qobiliyatlari shakllanadi va albatta uzluksiz ta’lim tizimidagi yaratilgan shart-sharoitlar asosida o‘qib, o‘rganib, istiqbolda el-yurtga nafi tegadigan inson bo‘lib voyaga yetadi.

ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz>. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 16 dekabr.
2. <https://lex.uz>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2018 yil 21 sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.// “Xalq so‘zi” gazetasi 2018 yil 8 dekabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T. “Ma’naviyat”, 2008, 43-bet.
5. Quronov.M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz... .T. “Ma’naviyat”, 2014, 22-bet.